

Markaziy Osiyoda qurg'oqchilik monitoringi bo'yicha Yoshlar forumi

Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini tobora dolzarb masalaga aylanib borayotgan bir vaqtda qurg'oqchilik monitoringi bo'yicha Markaziy Osiyo yoshlar forumining o'tkazilishi nafaqat ilmiy, balki strategik ahamiyatga ega tashabbus sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur forum "Space Technology Conference 2026" xalqaro anjumani doirasida tashkil etilgani esa alohida ahamiyat kasb etadi. Unda Xitoy, Hindiston va Rossiyadan ESCAP mintaqaviy qurg'oqchilik mexanizmi ishtirokchilari, xalqaro ekspertlar, davlat idoralari, universitetlar, ilmiy markazlar vakillari, 35 yoshgacha bo'lgan yosh tadqiqotchilar va talabalar ishtirok etishdi.

Qayd etish lozim, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari katta salohiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, jiddiy iqlim xavflari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ayniqsa, qurg'oqchilik qishloq xo'jaligi, suv resurslari va iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa muammolarga reaksiya qilishdan ko'ra, ularni oldindan boshqarishga o'tishni strategik vazifaga aylantiryapti.

Aynan shu nuqtada zamonaviy kosmik texnologiyalar eng aktual yechimdir. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va Yerni kuzatish tizimlari orqali atrof-muhit holati haqida tezkor va xolis ma'lumotlar olish, o'zgarishlarni prognoz qilish va asosli qarorlar qabul qilish imkoni paydo bo'ladi.

Mazkur forum ham ayni shu yo'nalishda 2022-yilda qabul qilingan Jakarta vazirlar deklaratsiyasi doirasida yoshlarni kosmik faoliyatga jalb etish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shishga qaratilgan.

Unda ilmiy markazlar, kosmik agentliklar, xalqaro tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning samarali namunasini ko'rishimiz mumkin. U bilim almashinuvini rag'batlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish va qurg'oqchilik monitoringi hamda iqlimga moslashuv bo'yicha mintaqaviy mutaxassislar hamjamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Forum BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESCAP) tomonidan amalga oshirilayotgan

"Markaziy Osiyo davlatlarining qishloq xo'jaligi va qurg'oqchilik monitoringi uchun Yerni kuzatish va geofazoviy texnologiyalardan foydalanish salohiyatini oshirish" dasturi doirasida tashkil etilmoqda. Loyiha Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonda kosmik texnologiyalardan samarali foydalanish, geofazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish hamda qurg'oqchilik va hosil monitoringini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda salohiyatni oshirishga qaratilgan.

Albatta, bu borada mamlakatimizda ayni yo'nalishda olib borilayotgan tizimli ishlarni ham alohida qayd etish lozim. Xususan, O'zbekkosmos agentligi tomonidan

kosmik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali bir qator aniq natijalarga erishilmoqda. Jumladan:

— Yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida monitoring tizimlari joriy etilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi yerlarining holati, vegetatsiya jarayonlari va qurg'oqchilik xavflari muntazam tahlil qilinmoqda.

— Qishloq xo'jaligida sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalanish orqali ekin maydonlarining samaradorligini baholash, suv tanqisligi xavfini aniqlash va fermerlarga amaliy tavsiyalar berish tizimi shakllantirilmoqda;

— Suv resurslarini monitoring qilish maqsadida daryolar, suv omborlari va irrigatsiya tarmoqlari holati kosmik kuzatuvlar orqali tahlil qilinib, tegishli idoralarga tezkor ma'lumotlar taqdim etilmoqda;

— Qurg'oqchilik va yer degradatsiyasini baholash bo'yicha geoaxborot tizimlari (GIS) asosida tahliliy xaritalar ishlab chiqilib, qaror qabul qiluvchi organlar uchun muhim instrument sifatida xizmat qilmoqda;

— Xalqaro hamkorlik loyihalari doirasida ilg'or davlatlar va tashkilotlar bilan tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sur'atlari oshirilmoqda.

Forum yakuniga ko'ra, quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilmoqda. Yoshlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oya va innovatsion yechimlarni namoyish etish, geofazoviy tahlil va ochiq kodli dasturlash asosida hamkorlik platformalarini rivojlantirish, yosh tadqiqotchilarning mintaqaviy tarmog'ini shakllantirish, ta'lim va amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash hamda xalqaro akademik almashinuvni kengaytirish

Bir so'z bilan aytganda, qurg'oqchilik monitoringi bo'yicha Markaziy Osiyo yoshlar forumi — bu oddiy ilmiy tadbir emas. Bu — mintaqaning kelajagiga kiritilayotgan investitsiyadir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur forum “Space Technology Conference 2026” doirasida o‘tkazilishi orqali xalqaro ekspertlar, olimlar va yosh tadqiqotchilarni bir maydonga jamlab, yangi ilmiy tashabbuslar va innovatsion yechimlar uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu esa Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta’minlash yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.